

**V. O‘quv jarayonini boshqarishda HEMIS platformasidan to‘liq foydalanish,
dars jarayonlarini yuritish tarkibi va sifatini yanada takomillashtirish
to‘g‘risida
(O.A.Raximberdiyev)**

Ayni paytda, respublikadagi 221 dan ortiq Oliy ta’lim muassasalari va 1 milliondan ortiq foydalanuvchilar (talaba va o‘qituvchilar) HEMIS axborot tizimidan foydalanib kelmoqda.

Kalqaro Nordik universitetida HEMIS axborot tizimiga o‘tish 2023-2024-o‘quv yilidan amalga oshirildi va barcha o‘quv jarayoniga oid masalalar to‘liq tizimga kiritildi. Xususan, universitet strukturasi (rahbariyatning roli), fakultetlar va kafedralar, xodimlar va o‘qituvchilar tarkibi, talabalar kontingenti va ularning harakatiga oid axborotlar tizimda aks ettirildi.

Tizimga fan resurslari, o‘quv reja, fan dasturlari (sillabuslar), asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar, fanlar bo‘yicha berilgan topshiriqlar, oraliq va yakuniy imtixonlar savolnomalarini yuklash va ularga muddat qo‘yish, shuningdek, barcha fanlardan topshiriqlarni bajarish muddatlari va amal qilish holatini monitoring qilish, o‘qituvchilar tomonidan topshiriqlarni o‘z vaqtida baholashi va topshiriqqa izoh (feedback) yozish bo‘yicha monitoring yuritish va tahliliy ma’lumot olish imkoniyati yaratildi.

Talaba ID guvohnomasining elektron varianti, shartnomalar (yuqori kurs talabalari uchun), reyting daftarcha, o‘quv varaqasi, nazoratlar jadvali, talaba davomati to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar, talabaning shaxsiy varaqasi, chaqiruv xatlari, tegishli talabalar to‘g‘risidagi buyruqlar va boshqa tegishli ma’lumotlar tizimda aks ettirildi va ushbu ma’lumotlardan foydalanib kelinmoqda.

HEMIS tizimi orqali talabalarning ayrim majburiyatlarini bajarmaganligi, xususan, kontraktdan qarzdorligi, ayrim universitetning ichki va akademik tartib qoidalarini buzgan talabalar uchun tizimni bloklash yoki hayfsan berish imkoniyatidan foydalanildi. Bunday imkoniyatlar o‘quv jarayonini tartibga olishga va majburiyatlar o‘z vaqtida bajarishga imkoniyat yaratdi.

Bundan tashqari hemis tizimida **dekanat** profiliga bir muncha yengilik yaratildi talabalarni nazorat qilish 2 baravarga osonlashdi. Yoshlar ishlari va talabalarga xizmat ko‘rsatuvchi departament xodimlariga (**tyutor**) uchun alohida shaxsiy kabinet ochildi tyutorlar o‘z talabalarni o‘zlashitirishi va davomati muntazam kuzatishi imkoniyati yaratildi, talabaga xizmat ko‘rsatish sezilari darajada oshdi.

Talabalarga hemis tizimidan o‘ziga kerakli bo‘lgan fan o‘qituvchisi yoki departament xodimlarga hemis orqali (**shikoyat va takliflarini**) matin shaklida yoki fayl shakilda yuborishi imkoniyati berildi.

Hemis tizimi ma’lumotlarni saralashga xamda ularni qayta ishlashga yordam berib kelmoqda bunga birgina misol; shartnomalarni shakilantirishda **buxgalteriya**

aniq bir kontinget bilan ishlamoqda, **Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti** uchun hemisda alohida bo'lim qilindi tayanch doktarant talabalar biriktirildi.

HEMIS tizimidan foydalanishda ayrim farqli jihatlar ham mavjud bo'lib, tizimda rasmiylashtirilishi bilan bog'liq texnik imkoniyatlar cheklanib qolmoqda:

Birinchidan, davlat OTMlari va XNUning baholash siyosati farqli bo'lganligi sababli, baholash jarayonida ayrim kamchiliklar kuzatilmoqda. Ya'ni. davlat OTMlarida talabaning JN va ON ballarining kamida (60 foizdan) **39 balldan** yuqori to'plasagina YN imtihonlarda ishtirok etish mumkinligi qayd etilgan. Mazkur holat bo'yicha XNUdagi aksariyat talabalar sirtqi ta'lim shakli bo'yicha taxsil olishi, hamda ularning JN bo'yicha (ON bilan birgalikda) jami **45 ball to'plash** imkoniyati mavjudligini hisobga olsak, deyarli 90 foizga yaqin talabalar YN imtihonlari kirishlari cheklanib qolmoqda. Ushbu holat texnik jihatdan qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Ikkinchidan, kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davomatlarni yuritish va qoldirilgan darslar (miqdorida) foizida farqlanish mavjudligi, ayni paytda davlat OTMlarida **25 foizni** tashkil etsa, XNUda **33,3 foizni** tashkil etadi. Ushbu jarayon ham baholash tartibiga bog'liqligi, yani fanlardan 25 foiz ortiq dars qoldirgan talabalarning yakuniy nazorat ballarini qayd etib bo'lmasligi va provardida qoldirilgan darslar (miqdori) fozini birxillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

uchunchidan, qaydnomalarni shakilantirishda kamchiliklar yuzaga kelebdi bunga sabab JN va ON ballarining (60 foizdan) ball to'plamagan talabalarga qo'shimcha qaydnomaga chiqishi uchun ularga o'qituvchilar tomonidan (0) bal qo'yilmasligi sababli talabalar 2-qaydnomaga chiqmasligi yuzaga kelebdi. Bundan tashqari kunduzgi ta'limda qaydnomarlarni saqlashda bir munkha xatolar yuzaga kelebdi fan o'qtuvchilar loyiha ishlarni to'liq tekshirib bo'lmasdan qaydnomalarni shakilantirib qo'yilmoqda, bu esa talabalar etirozga olib kelmoqda

to'rtinchidan, sirtqi ta'lim shaklida o'qiydigan talabalar uchun imtihon topshirishi uchun baholash chegarasini (1-ball) deb yuritiladi bu esa qolgan jarayondagilarga qiyinchiliklar tug'dirmoqda bundan tashqari **ECTS** kredit-modul tizimida talaba 100 ball to'plashi keltirilgan hemis tizimiga joriy nazorat 45-ball va yakuniy nazoratga 55-ball kiritilgandan so'ng qayta topshirish uchun yana yakuniy nazorat ballini 100-ballga olib chiqish jarayonida talaba jami hisob bo'yicha 150-ball ummumiy ball hisoblanishi bu esa qayta topshirish qaydnomalarida joriy nazoratlarni qaydnomaga tushib qolishi kuzatilmoqda

**Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarni muhokama qilgan holda
Kengash qaror qiladi:**

1.